



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
DAVLAT TEST MARKAZI

**REPETITSION TEST TOPSHIRUVCHILAR UCHUN**

**TEST TOPSHIRIQLARI  
KITOBI**

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_  
F.I.O. \_\_\_\_\_

Imzo \_\_\_\_\_

**ABITURIYENT DIQQATIGA!**

Test topshiriqlarini yechishdan avval kitobni varaqlab, unda har bir fan bo'yicha 30 ta topshiriq mavjudligini tekshiring. Agar topshiriqlar soni kamligi aniqlansa yoki kitob raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya nazoratchisiga ma'lum qiling.

Test topshiriqlari kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

**40**

**FANLAR:**

- |                                 |                    |
|---------------------------------|--------------------|
| 1. <i>Ona tili va adabiyoti</i> | 1-30 topshiriqlar  |
| 2. <i>Tarix</i>                 | 31-60 topshiriqlar |
| 3. <i>Biologiya</i>             | 61-90 topshiriqlar |

Kitob raqami: **1921541**

Toshkent – 2018



## ONA TILI VA ADABIYOTI

1. Qaysi gapdag'i fonetik hodisa faqat yasama so'zda yuzaga kelgan?
  - A) Aslo odamzodga achchiq so'z qilmang.
  - B) Ko'nglima orzular solgan qishlog'im, olis-olislarda qolgan qishlog'im
  - C) Mehnat hayot chirog'iga yog' quyadi.
  - D) Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzing hajrida sarg'aydim.
  
2. Quyidagi qaysi javobda asosida 2 ta jarangli undosh o'rtaida keng unli qatnashgan yasama so'z berilgan?
  - A) borliq
  - B) qarmoq
  - C) chopqir
  - D) gulzor
  
3. Qaysi gapda ikki so'zda imloviy xatolikka yo'l qo'yilgan?
  - A) Xitoy yilnomalarida hoqonlarning taxtga chiqish morosimi haqida tafsilotlar berilgan.
  - B) Boshliq bo'lganiningizdan keyin gapirish emas, tanbez berishga ham haddingiz sig'adi, — dedi u.
  - C) Bu maschit qishloqning xilvatgina chekka qismida bo'lib, kichikroq bir xona va torroq ayvondan iborat.
  - D) Qo'shimcha ma'lumot uchun sahifa oxirida tegishli adabiyotlarga xavolalar berilgan.
  
4. Shakldoshlik xususiyatiga ega qaysi so'zlar faqat yasama so'z sifatida o'zar omonim bo'la oladi?
  - 1) ko'zlar; 2) elchilik; 3) oshiqlik; 4) sozlar; 5) terim; 6) oqar
  - A) 1, 4, 5, 6
  - B) 3, 4, 5
  - C) 2, 3, 4
  - D) 2, 3
  
5. Qaysi gap tarkibida fe'lning munosabat shakli vazifasida qo'llangan ko'makchi morfema sonor undosh tovush bilan ifodalangan?
  - A) Nima qilay, o'rgilay, aytsam, tilim kuyadi, aytmasam — dilim.
  - B) Bir tishlam non gadosi bo'lib, birovlarning eshigiga borgan vaqtlarim ham bo'ldi.
  - C) Kimki buni tushunmabdi, u katta xatoga yo'l qo'yadi.
  - D) Otangning bolasi bo'lma, odamning bolasi bo'l.
  
6. Quyidagi gapda qatnashgan yasama so'zlar va so'z yasovchi qo'shimchalar sonini aniqlang.
 

Sipohning tarqoqligi saltanatning kuchsizlanishiiga olib keladi.

  - A) 2 ta yasama so'z, 4 ta so'z yasovchi qo'shimcha
  - B) 2 ta yasama so'z, 3 ta so'z yasovchi qo'shimcha
  - C) 3 ta yasama so'z, 4 ta so'z yasovchi qo'shimcha
  - D) 3 ta yasama so'z, 3 ta so'z yasovchi qo'shimcha
  
7. Qaysi javobda asliy sifat(lar) ishtirop etgan?
  - A) Shohi ro'molli ayol bilan ko'rishi.
  - B) Xonaga beqasam to'n kiygan do'ppili kishi kirib keldi.
  - C) Bugungi ishni ertaga qo'yma!
  - D) Achchiq savol berib, shirin javob kutma.
  
8. Nuqtalar o'rnida faqat tushum kelishigi qo'shimchasi qo'llanadigan gapni belgilang.
  - A) Yo'lchi arava... nimasi shikastlangani... payqamay hayron bo'lib turar ekan, arava... tagidan dehqon... ayanchli tovushi eshitildi.
  - B) Qirq yil umri... sarf qilib, yulduzlar siri..., koinot siri... o'rgandi-yu, zamin siriga, insonlar hayotiga kelganda g'aflatda qoldi.
  - C) Ko'p til... bilmoqlik... foydasi katta, u inson... katta boyligi hisoblanadi.
  - D) Mamlakat... kichik bir qismi bo'lgan oila... tinchligi... asraylik.

9. Qaysi gapda to'pdan ajratilgan shaxs ma'nosini bildirgan olmosh ega vazifasini bajargan?
  - A) Kela berdilar bari kattakon chinor sari.
  - B) Majlisda bu masala haqida hech kim churq etmadni.
  - C) Har bir inson o'z baxti uchun kurashadi.
  - D) Har birimiz shu jannatmakon yurt tuprog'iga sodiq bo'lmog'imiz kerak.
  
10. 1. Yaxshiyam, oshxona yaqinda. 2. Yaqinda imtihonlar boshlanadi. 3. Ammam kamnamo edilar, biznikiga onda-sonda kelardilar. 4. Onda-sonda o'sgan daraxtlar ko'zga tashlanadi.  
Ushbu gaplardagi ravishning ma'no turini aniqlang.
  - A) 1, 2, 3-o'rin; 4-payt
  - B) 1, 3-payt; 2, 4-o'rin
  - C) 1, 4-payt; 2, 3-o'rin
  - D) 1, 4-o'rin; 2, 3-payt
  
11. Qaysi gapda yetakchi qismi qo'shma fe'l bo'lgan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi qatnashgan?
  - A) Keyin ularning ham chandilgan iplarini yechib, ayira boshladik.
  - B) Hayotdan saboq olib, yaxshilardan ibrat olib yasha, qizim.
  - C) Bizni ham taklif qilib qo'yishni unutmang.
  - D) Birpasgina bo'lsa ham gaplashib, meni tinchitib qo'ysang bo'lgani.
  
12. Binafsha senmisan, binafsha senmi,  
Ko'chada aqchaga sotilgan?  
Binafsha menmanmi, binafsha menmi,  
Sevinginga, qayg'ungga tutilgan?  
Binafsha, nimaga bir ozroq ochilmay,  
Bir erkin kulmasdan uzilding?  
Binafsha, nimaga hidrlaring sochilmay,  
Yerlarga egilding, cho'zilding?  
She'riy parchada nechta fe'lning yetakchi morfemasi shakldoshlik xususiyatiga ega?
  - A) 3
  - B) 2
  - C) 4
  - D) 5
  
13. Biriktiruv bog'lovchisi sifatida oddiy so'zlashuv uslubida ko'proq ishlatalidigan so'zni aniqlang.
  - A) va
  - B) ham
  - C) hamda
  - D) bilan
  
14. Qaysi javobda qo'shma gapning ikkinchi qismida qo'llanadigan bo'g'lovchilar keltirilgan?
  - A) toki, shuning uchun, bilan, hamda, basharti
  - B) chunki, negaki, goh... goh, balki, mabodo
  - C) chunki, negaki, balki, ammo, lekin, biroq, ya'ni
  - D) ammo, lekin, agar, chunki, va
  
15. Ertasiga ertalab ona yana yo'lga tushdi. Ular xiyla uzoqlashib ketgan edi. Aylanma yo'llardan ehtiyojkorona o'tib uzoq yurdi.  
Ushbu gapda nechta so'z birikmasi sifatlovchi aniqlovchili birikma sanaladi?
  - A) bunday birikma ishtirop etmagan
  - B) 2 ta
  - C) 1 ta
  - D) 3 ta
  
16. Otlashgan sifatdosh bilan ifodalangan ega ot kesimiga tobelangan maqolni toping.
  - A) Kiyimning yangisi yaxshi, do'stning — eskisi.
  - B) Tekinning minnati ko'p,  
Mehnatning — ziynati.
  - C) Bilmaganini so'rab o'rgangan — olim,  
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.
  - D) Qilgan eshikka boqar,  
Qilmagan — teshikka.

17. Sizning ehg buyuk, eng muqaddas vazifangiz yurtimiz istiglolini, xalqiniz ozodligini ko'z qorachig'iday asrash, uning xavfsizligini himoyalashdir.  
Berilgan gapda ham qaratqich aniqlovchini, ham sifatlovchi aniqlovchini tobelantirgan so'z qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?  
A) hol B) to'ldiruvchi C) ega D) kesim
18. Qaysi javobda uyushgan sifatlovchi aniqlovchi haqidagi to'g'ri fikrlar ko'rsatilgan?  
1. Narsa-buyumlarning bir turdag'i belgilarini bildirgan birdan ortiq sifatlovchi uyushib kela oladi.  
2. Uyushiq aniqlovchilar aniqlanmishga baravar tobe bo'ladi.  
3. Narsa-buyumlarning turli belgilarini bildirgan birdan ortiq sifatlovchi uyushib kela olmaydi.  
4. Uyushiq sifatlovchi aniqlovchilar o'zaro sanash ohangi bilan teng bog'lanadi.  
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 4
19. Qo'shma gap berilgan javobni toping.  
A) Insoniyat orol bo'lib emas, qit'a bo'lib yashashni o'rganmog'i lozim.  
B) Ish ko'pligi-yu, vaqt yo'qligidan nolimang.  
C) Aytishlaricha, ko'zguda inson quvvatini so'rib olish xususiyati bor ekan.  
D) Odam bolasi elektr simi emaski, musbat yo manfiyga ajratsang.
20. "Husayin Voiz Koshifiy Sharqda ma'lum va mashhur shaxs, — deb yozadi Najmiddin Komilov "Tafakkur karvonlari" asarida. — U Navoiyga bag'ishlab kitob yozgan, uning mehrini qozongan yaqin kishisi, muxlisi, do'sti edi". Berilgan ko'chirma gapli qo'shma gapning muallif gapi qismida kesim qaysi zamon ma'nosini anglatgan?  
A) kelasi zamon B) o'tgan zamon C) hozirgi zamon D) hozirgi-kelasi zamon
21. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson o'zini eng avvalo O'zbekiston fuqarosi deb shundan keyingina muayyan bir hudud vakili aytaylik samarqandlik yoki Farg'ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim.  
Ushbu gapda nechta vergul tushirib qoldirilgan?  
A) 3 ta B) 4 ta C) 6 ta D) 5 ta
22. Qaysi asar qahramoni o'zini "Xudoning yaratgan sheri" deya ataydi?  
A) "Algomish" dostoni B) "Ravshan" dostoni  
C) "Ulug'bek xazinas" romani D) "Sohibqiron" dramasi
23. "Ahmoq kishining tili o'ziga dushman, ko'p kishilarning qoni tili tufayli to'kildi. Ko'p so'zlaganlar ichida o'kingan ko'pdir, tilni tiyganlar orasida o'kingan bormi?"  
Tilni tiyish haqidagi mazkur o'git muallifini aniqlang.  
A) Abay B) Yusuf Xos Hojib C) Mahmud Koshg'ariy  
D) Ahmad Yugnakiy
24. Alisher Navoiyning "Mehr va Suhayl" hikoyasida Mehr chohdag'i bandini nima maqsadda qutqaradi?  
A) otasiga xabar jo'natish maqsadida  
B) Jobir bilan jang qildirish maqsadida  
C) bandi orqali Suhaylga xabar yuborish maqsadida  
D) Suhayl ekanligini bilgani uchun
25. Furqat qalarmiga mansub aruz vaznining qoidalari haqidagi asar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
A) "Ilmi ash'orning qoidai avzoni" B) "Mezon ul-avzon"  
C) "Aruz haqida" D) "Muxtasar"
26. Quyidagi qaysi ma'rifatparvar dastlabki matbuot nashrlaridan biri bo'lmish "Shuhrat" gazetasini chiqarishga boshchilik qilgan?  
A) Fitrat B) A. Avloniy C) Cho'lpion D) Behbudiy
27. Bir ayolning urush tufayli ota mehrini ko'rmagan, katta mashaqqatlar bilan o'stirgan o'g'lining nikoh kechasidan keyingi iztirobli xotiralari tasvirlangan asarni aniqlang.  
A) Mirtemir "Surat" B) Mirtemir, "Toshbu"  
C) Saida Zunnunova "Ruh bilan suhbat"  
D) Erkin Vohidov "Nido"
28. "Yurak qoning to'kilgan so'qmoq — Bag'ri alvon lolaqizg'aldoq".  
Ushbu go'zal tashbeh muallifi kim?  
A) T.Sulaymon B) Sh.Rahmon C) S.Sayyid  
D) M.Yusuf
29. "Dunyodagi barcha mavjud hodisalarning sirini hech bo'lmasa yuzakiroq bo'lsa ham bilmaslik — bu odamgarchilikdan emas..."  
Ushbu parcha qaysi asardan olingan?  
A) "Mahbub ul-qulub", Navoiy  
B) "Hayrat ul-abror", Navoiy C) "Nasihatlar", Abay  
D) "Zarbulmasal", Gulxaniy
30. Tanosub, tashbeh va tazod san'atlari qo'llangan bayt berilgan javobni belgilang.  
A) Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul,  
Xor-u rasvo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul.  
B) Ul husn-u jamoling o'ti Mashrabg'a tushubdur,  
Parvonasifat kuydi, parizod, eshigingda.  
C) Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,  
Ko'rub rahm aylagil, ey lola rux, bu chehrayi.  
zardim.  
D) Jamoling vasfini qildim chamanda,  
Qizordi gul uyottin anjumanda.

## TARIX

31. Eftaliylar qisqa vaqt ichida Chag'oniyon, Toxariston va Badaxshonni bo'ysundiriganidan so'ng qayerda o'z hukmronliklarini o'matadilar?  
A) Xitoy B) Vizantiya C) Sug'd D) Balx
32. 1451-yilda Abulxayrxon katta qo'shin bilan Samarqandga Mirzo Abdulloga qarshi qaysi shaharlar orqali yurish qiladi?  
1) Qo'son; 2) G'uzor; 3) Toshkent; 4) Chinoz; 5) Oqqo'rg'on;  
6) Jizzax  
A) 1, 2, 5 B) 1, 3, 5 C) 3, 4, 6 D) 2, 4, 6
33. Temuriylar davrida Van ko'li qaysi davlat hududida joylashgan?  
A) Ozarbayjon B) Iroq C) Eron D) Armaniston
34. O'rta asrlarda Movaraunnahr va Xurosonda bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar va ularning qarorgohlari mos ravishda joylashtirilgan javobni toping.  
1) "Oq kiyimlilar"; 2) Abu Muslim; 3) Mahmud Torobi; a) Robiya saroyi; b) Som qal'asi; c) Moxuvon qal'asi  
A) 1-b, 2-a, 3-c B) 1-a, 2-c, 3-b C) 1-a, 2-b, 3-c  
D) 1-b, 2-c, 3-a
35. Shayboniyalar tomonidan ta'limni rivojlantirish sohasida islohot o'tkazilishining sababini aniqlang.  
A) Temuriylar davridan yetib kelgan ilmiy muassasalarini yanada rivojlantirish  
B) Yevropaning rivojlanib ketish sabablarini o'rganish va unga imkon qadar yetib olish  
C) barcha sohalar bo'yicha ilmlli amaldorlar guruhini vujudga keltirish va ularni jamiyatning asosiy tayanchiga aylantirish  
D) aniq va tabiiy fanlarda erishilgan yutuqlarni keng ommaga yetkazish

36. Muhammad Shayboniyxon tomonidan quyidagi shaharlarning bosib olinish ketma-ketligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
 1) Toshkent; 2) Farg'onha; 3) Hirot; 4) Samarcand; 5) Balx; 6) Xorazm  
 A) 4, 1, 2, 6, 5, 3    B) 1, 4, 2, 6, 5, 3    C) 1, 4, 2, 5, 3, 6  
 D) 6, 1, 4, 2, 5, 3
37. Buxoro amirligida tashqi aloqalarini yuritish kimga yuklatilgan edi? (XIX asr o'rtalari)  
 A) qo'shbegiga    B) parvonachiga    C) devonbegiga  
 D) dodhohga
38. XX asr boshlarida Xiva xonligida yangi soliqlarni joriy qilishdan iborat tadbirlar natijasida qaysi hududlarda qo'zg'olonlar ko'tarildi?  
 A) Mang'it va Xo'jaylida    B) Xo'jayli va Hazoraspda  
 C) Mang'it va Chimboyda    D) Hazorasp va Xonqada
39. Ma'lumki, O'rta O siyoda taraqqiy parvarlar rivojlangan jamiyat yaratish g'oyalarini amalga oshirishda mutaassiblik, loqaydlik, qoloqlikka qarshi kurash olib borishga alohida ahamiyat bergenlar. Ular bu vazifalarni amalga oshirishda qaysi yo'nalishlarni ustuvor deb hisoblaganlar?  
 1) yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; 2) Davlat dumasida savdo-sotiq egalariga imtiyozlar berish;  
 3) qobiliyatl yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; 4) milliy burjuaziyani har tominlama qo'llab-quvvatlash; 5) turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalarini tuzish; 6) soliqlar masalasida radikal islohatlar o'tkazish; 7) gazeta va jurnallar chop etish, xalqning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ongini yuksaltirish  
 A) 2, 4, 6, 7    B) 1, 2, 3, 4    C) 1, 3, 5, 7    D) 1, 4, 5, 6
40. 1917-yilda bo'lib o'tgan Butunrossiya musulmonlarining II qurultoyida qabul qilingan qarorlarga quyidagilardan qaysi biri taalluqli emas?  
 A) "Ezilgan va ekspluatatsiya qilinuvchi xalq huquqlari Deklaratsiyasi" ning huquqiy maqomini qayta tiklash to'g'risida qaror  
 B) Musulmonlarning kurashini tashkil etish uchun Butunrossiya harbiy sho'rosini ta'sis etish to'g'risidagi qaror  
 C) Turkistonda davlat boshqaruvini mehnatkashlarning o'zları hal etishi to'g'risidagi qaror  
 D) Kavkaz va Qrimda davlat boshqaruvini mehnatkashlarning o'zları hal etishi to'g'risidagi qaror
41. 1951-yilda "sovetlarga qarshi millatchilik faoliyati"da ayblanib qamoqqa olingan va keyinchalik 25 yilga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan ijodkorlarni aniqlang.  
 A) V.Zohidov, O.Aminov, A.Boboxo'jayev  
 B) Oybek, H.Zaripov, H.Yoqubov, I.Sultonov  
 C) Turob To'la, K.Otaboyev, Mirtemir, Sobir Abdulla, Habibiy  
 D) Maqsud Shayxzoda, Sh.Yusupov, Said Ahmad, G'.Alimov
42. II jahon urushigacha bo'lgan davrda respublikamizda qurilgan kanallarni belgilang.  
 1) Darg'om; 2) Shimoliy Toshkent; 3) Narpay; 4) Savay; 5) Yuqori Chirchiq; 6) Dalvarzin; 7) Log'on; 8) Uchqo'rg'on  
 A) 1, 3, 5, 6, 7    B) 1, 3, 4, 6, 7    C) 1, 2, 3, 5, 7  
 D) 2, 4, 5, 6, 7
43. Milliy uyali aloqa tizimini Markaziy Osiyo Respublikalari orasida birinchi bo'lib o'rnatgan davlatni belgilang.  
 A) Qirg'iziston    B) Turkmaniston    C) Tojikiston  
 D) O'zbekiston
44. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 35 kishidan iborat tarkibi qachon tuzilgan?  
 A) 2000-yil 11-fevral    B) 2004-yil 10-mart  
 C) 1995-yil 5-may    D) 1990-yil 30-mart
45. Quyidagi voqealarining qaysilar O'zbekistonda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi" deb nomlangan yilda yuz bergan?  
 1) O'zbekistonda maktab ta'limi rivojlantirish Davlat umummulliy dasturini ishlab chiqish masalasida Vazirlar Mahkamasining qarori chiqdi. 2) Hamyurtimiz Rustam Qosimjonov shaxmat bo'yicha jahon championi unvonini qo'liga kirtdi. 3) "JV MAN Avto-O'zbekiston" qo'shma korxonasi tashkil etildi. 4) Angren shahrida Xalqaro logistika markazi qurilib ishga tushirildi. 5) Moskvada O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida strategik sherikchilik to'g'risida bitim imzolandi  
 A) 3, 4    B) 2, 4    C) 1, 5    D) 1, 2
46. Qaysi hukmdor davrida Yangi Bobil podsholigi o'z quadratinig cho'qqisiga erishgan?  
 A) Xammurapi    B) Salmanasar    C) Salmanasar II  
 D) Navuxodonosor II
47. Ud cholg'u asbobini chalayotgan musiqachilar tasviri topilgan Kushon davriga oid yodgorlikni aniqlang.  
 A) Qoratepa    B) Ayritom    C) Surxko'tal  
 D) Dalvarzintepa
48. Shtaufenlar sulolasiga mansub Fridrix I siyosatiga qarshi 1162-yilda ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirish davomida qaysi shahar aholisiga sakkiz kunda shaharni tashlab ketish sharti qo'yilgan?  
 A) Neapol    B) Milan    C) Bolonya    D) Rim
49. Angliyada Richard II hukmronligi nihoyasiga yetgan yili tarixda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.  
 A) Boyazid Yildirim taxtga o'tirdi  
 B) Mirzo Ulug'bek hukmronligi nihoyasiga yetdi  
 C) Fransiyada Jakeriya qo'zg'oloni boshlandi  
 D) Amir Temuring 7 yillik urushlari boshlandi
50. Uzoq muddatli kurashlardan so'ng 1826-yilda Afg'oniston taxtini egallagan hukmdorni aniqlang.  
 A) Mir Vaysxon    B) Do'st Muhammadxon  
 C) Zamonshoh    D) Shuju
51. Quyidagi qaysi voqe Da'st Muhammadxon Afg'oniston taxtini egallab, o'zini amir deb e'lon qilgan yili sodir bo'lgan?  
 A) Miyonqo'lda Buxoro amiriga qarshi qo'zg'oloni ko'tarildi.  
 B) Buxoroda Amir Haydar hukmronligi tugadi.  
 C) Fransiyada Burbonlar hokimiysi qayta tiklandi.  
 D) Rossiyada dekabristlar qo'zg'oloni ko'tarildi.
52. Quyidagi atamalardan qaysi biri xalqaro shartnomaga, bitim ma'nosini bildiradi?  
 A) demobilizatsiya    B) traktat    C) urbanizatsiya  
 D) ssuda
53. Avstriya-Vengriya imperiyasi tuzilgach, qanday umumimperiya vaziriylari tashkil etilgan?  
 1) Tashqi ishlari; 2) Ichki ishlari; 3) Savdo-sotiq ishlari;  
 4) Harbiy va dengiz; 5) Moliya  
 A) 1, 2, 5    B) 1, 2, 3    C) 1, 4, 5    D) 2, 3, 4
54. Birinchi rus inqilobining natijalariga quyidagilardan qaysilar kiradi?  
 1) ishilchilarga kasaba uyushmalariga birlashish huquqi berildi; 2) ish tashlaganlarning maoshlari saqlanadigan bo'ldi; 3) ish tashlaganliklari uchun jinoiy javobgarlikka tortish bekor qilindi; 4) dehqonlarning yer uchun haq to'lashlari bekor qilindi; 5) dehqonlar fondi orqali yersiz dehqonlarga yer berish joriy qilindi; 6) parlament joriy etildi; 7) qo'zg'olochilarga umumiyl avf berildi.  
 A) 2, 4, 5, 6    B) 1, 2, 4, 5    C) 2, 5, 6, 7    D) 1, 3, 4, 6
55. Suriya mustaqil davlat deb e'lon qilingan sanani aniqlang.  
 A) 1941 yil 27 sentabr    B) 1936 yil 1 sentabr  
 C) 1942 yil 27 iyul    D) 1925 yil 7 oktabr

56. Fuqarolar urushi va chet el intervensiysi davrida (1918-1920) Sovet hukumatining og'ir ahvoldidan foydalaniib, interventlar Sovet davlatiga qarshi qaysi hududlarga o'z qo'shinlarini tushirgan edilar?
- A) Turkiya Armaniston va Ozarbayjonning katta qismini bosib oldi, Yaponiya, AQSH, Buyuk Britaniya Murmansk va Arxangelskka qo'shin tashladi  
 B) Ruminiya Bessarabiyanı bosib oldi, Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya Uzoq Sharqqa qo'shin tashladi  
 C) Buyuk Britaniya qo'shinlari Turkmanistonning bir qismini egalladi, Serbiya Bessarabiyanı bosib oldi  
 D) Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya Murmansk va Arxangelskka qo'shin tashladi, Buyuk Britaniya qo'shinlari Turkmanistonning bir qismini egalladi
57. Qaysi javobda Italiyada 1919-yilda tashkil topgan "Xalq partiyasi" dasturidan o'rın olgan ikki muhim masala to'g'ri ko'rsatilgan?
- 1) yer egalaridan haq to'lash evaziga bir qism yerlarni olish va uni dehqonlarga bo'lib berish; 2) chet ellarga ish qidirib chiqib ketgan malakali ishchilarni mamlakatga qaytarish va ularga sharoit yaratib berish; 3) ishlab chiqarish korxonalarida ishchi nazoratini kuchaytirish; 4) mehnat uchun adolatli haq to'lash; 5) Italiyada inqilobiy harakatning oldini olish
- A) 2, 5    B) 2, 3    C) 3, 4    D) 1, 4
58. BMT 1973-yilda qaysi davlatni Janubi-G'arbiy Afrikani boshqarish huquqidan mahrum etdi?
- A) Buyuk Britaniyani    B) JARni    C) Germaniyani  
 D) Fransiyani
59. Ishga qabul qilishda «psixologik yondashuv»dan foydalilanligan, ya'ni umrbod ish bilan ta'minlash haqida shartnoma tuziladigan Osiyo davlatini aniqlang.
- A) Hindiston    B) Xitoy    C) Yaponiya    D) Indoneziya
60. Afrikadagi bu davlat 1965-yil bir guruh oq tanlilar tomonidan mustaqil davlat deb e'lon qilindi, lekin buni Buyuk Britaniya ham, BMT ham tan olmadidi. Yakkalanib qolgan oq tanlilar 1979-yil muzokara boshlab hokimiyatni afrikaliklarga berishga majbur bo'ldi. Natijada 1980-yil bu davlatning nomi ... o'rniga yangi ... deb o'zgartirildi.
- A) Janubi-g'arbiy Afrika, Namibiya  
 B) Rodeziya, Zimbabve    C) Zambiya, Zimbabwe  
 D) Rodeziya, Mozambik
- ### BIOLOGIYA
61. To'g'ri fikrni aniqlang.
- A) kapachi va tovusko'zning qanotlari o'zaro gomologik organlari.  
 B) Ko'krak qafasidagi uzun g'ovak suyaklar soni 12 just.  
 C) Liven, rod-aylend, bankiv, yakobin tovuq zotlaridir.  
 D) Organizm mustaqil hayot kechiruvchi bir va ko'p hujayrali tirik tizim.
62. Parazit hayot kechiruvchi eukariotlarni (a) va prokariotlarni (b) aniqlang.
- 1) nozema; 2) tripanosoma; 3) leyshmaniya; 4) qoqshol qo'zg'atuvchisi; 5) bo'g'ma qo'zg'atuvchisi; 6) vilt qo'zg'atuvchisi; 7) herpes qo'zg'atuvchisi; 8) bezgak paraziti; 9) terlama qo'zg'atuvchisi
- A) a - 3, 5; b - 4, 8    B) a - 2, 3; b - 4, 5  
 C) a - 1, 8; b - 2, 9    D) a - 2, 6; b - 4, 7
63. Mioglobin oqsili tarkibida 154 ta peptid bog' bo'lsa, tegishli genning uzunligini (nm) toping. (2 ta nukleotid orasidagi masofa 0,34 nm ga teng.)
- A) 158,1    B) 455,9    C) 17,5    D) 52,7
64. Sellyulozadan iborat hujayra qobig'iga ega bo'lmagan eukariot organizmlarda parazitlik qiluvchi eukariot organizmlarni aniqlang.
- 1) ko'kyo'tal qo'zg'atuvchisi; 2) vertisillium; 3) zang zamburug'i; 4) leyshmaniya; 5) tripanosoma; 6) qorakuya;  
 7) nematoda
- A) 5, 6    B) 2, 3    C) 1, 7    D) 4, 5
65. Jinsiy ko'payish jarayonida ulotriksning 256 ta yangi ipi hosil bo'lgan bo'lsa, ularni hosil qilishda nechta gameta ishtirok etgan?
- A) 32    B) 128    C) 64    D) 16
66. Qaysi jarayonlar moyoz uchun xos emas?
- 1) ketma-ket sodir bo'ladigan ikkita bo'linish jarayoni; 2) bir xil irlisy axborotga ega ikkita hujayraning hosil bo'lishi;  
 3) gomologik xromosomalarining har xil hujayralarga tarqalishi; 4) gaploid to'plamli qiz hujayralarning hosil bo'lishi; 5) birinchi bo'linishdan avval interfaza boscichining bo'lishi; 6) xromatidalar tetradasining hosil bo'lishi
- A) 3, 6    B) 1, 4, 6    C) 2, 5    D) 1, 3, 4
67. Xromosoma bir qismining boshqa nogomologik xromosomaga qo'shilishi oqibatida yuzaga keladigan o'zgaruvchanlik turini aniqlang.
- A) genotipik – mutatsion    B) genotipik – rekombinativ  
 C) genotipik – modifikatsion    D) fenotipik – kombinativ
68. Jirafa bilan bir sinfga (a) va bir turkumga (b) mansub hayvon zotlarini aniqlang.
- 1) Simmental; 2) Axaltaka; 3) Vladimir; 4) Gereford;  
 5) Kornuel; 6) Merinos; 7) Romanov; 8) Qorabayir;  
 9) Laqay; 10) Plimutrok
- A) a - 4, 6, 7; b - 1, 5, 10    B) a - 4, 6, 10; b - 1, 7  
 C) a - 1, 4, 7; b - 5, 6, 8    D) a - 2, 3, 9; b - 4, 7
69. Bir urug'li quruq (a) va bir urug'li ho'l (b) meva hosil qiluvchi o'simliklarni aniqlang.
- 1) qo'ng'irbosh; 2) javdar; 3) o'rik; 4) nok; 5) shaftoli;  
 6) olcha; 7) bangidevona; 8) lola
- A) a - 2; b - 3, 5    B) a - 2, 8; b - 3, 5  
 C) a - 1; b - 5, 8    D) a - 3, 4; b - 6, 7
70. Mog'or zamburug'ning sporangiybandining uchida ... shakldagi ... hosil bo'лади.
- A) sharsimon, sporangiy    B) sharsimon, spora  
 C) ovalsimon, arxegoniy    D) tuxumsimon, antiridiy
71. Suv qirqqulog'ida gametofiti (a) va sporofiti (b) nimadan rivojlanadi?
- A) a - murtakdan; b - sporadan  
 B) a - zigotadan; b - sporadan  
 C) a - sporadan; b - zigotadan  
 D) a - anteridiydan; b - arxegoniydan
72. Barglari qarama-qarshi joylashgan buta (1) va ko'p yillik o't (2) larni belgilang.
- a) kiyiko't; b) ligustrum; c) nastarin; d) chinnigul; e) yalpiz;  
 f) rayhon; g) pomidor
- A) 1-b, c, d; 2-a, e, f    B) 1-a, e, f; 2-b, c, d  
 C) 1-c, d; 2-e, f, g    D) 1-b, c; 2-a, d, e
73. Kartoshkagul (a) va kartoshka (b) uchun mos keluvchi ma'lumotlarni juftlang.
- 1) ildizpoyasi orqali ko'payadi; 2) gullari gajak to'pgulda joylashgan; 3) to'pguli atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan; 4) shakli o'zgargan yer osti novdasi mayjud;  
 5) ituzum turkumiga kiradi; 6) shuvoq turkumi vakili
- A) a-2, 4, 5; b-1, 2, 6    B) a-1, 2, 6; b-2, 3, 6  
 C) a-2, 5, 6; b-1, 2, 6    D) a-1, 3, 4; b-2, 4, 5

74. Og'iz a'zosi kemiruvchi tipda tuzilgan to'liq o'zgarish bilan rivojlanadigan hasharotlarni aniqlang.

- A) kolorado qo'ng'izi, mita, go'ngxo'r qo'ng'izi  
 B) chirildog, bronza qo'ng'iz, iskabtopar  
 C) bronza qo'ng'iz, tut ipak qurti, sariq suvarak  
 D) podolariy lichinkasi, kolorado qo'ng'izi, burgalar

75. Ilonboshning bosh skeleti suyaklarini ko'rsating.

- 1) miya qutisi; 2) jabra varaqlari; 3) jabra qopqoqlari;  
 4) jag'lari; 5) kamar suyaklari; 6) jabra ravoqlari  
 A) 1, 2, 4    B) 1, 3, 4, 6    C) 2, 3, 6    D) 1, 3, 4, 5

76. Losga xos bo'lgan belgililar ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) kamar suyaklari umurtqa pog'onasiga tutashmagan;  
 2) tana harorati tashqi muhitga bog'liq emas;  
 3) gastrulyatsiya jarayonida uch qavatlari murtak varaqlari hosil qiladi; 4) embrional davrida jabra mavjud bo'ladi;  
 5) ko'payishi tashqi urug'lanish orqali amalga oshadi;  
 6) homilasi bachadonga yo'idosh orqali bog'langan  
 A) 1, 5    B) 4, 5    C) 1, 3    D) 2, 6

77. Vladimir zoti - ...

- A) sersut qoramol zoti    B) juft tuyoqli hayvon  
 C) po'stinbop terili qo'y zoti    D) tarpanning avlodni

78. Nutriya, sug'ur, yumronqoziq uchun umumiy xususiyatlarni ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) kurak tishlari rivojlangan; 2) oziq tishlari rivojlangan;  
 3) qoziq tishlari rivojlanmagan; 4) oziq tishlari rivojlanmagan; 5) qoziq tishlari rivojlangan.  
 A) 1, 3    B) 3, 4    C) 2, 5    D) 1, 4

79. Odamning hazm qilish bezlari ishiga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rsating.

- 1) qalqonsimon bezdan ajraluvchi tiroksin gormoni; 2) orqa miya ko'krak segmentining orqa qismidan chiquvchi nerv tolalari; 3) tashqi muhit haroratining pasayishi yoki ko'tarilishi; 4) orqa miyaning 5-bel segmentidan chiquvchi somatik nerv tolalari; 5) bosh miya katta yarimsharlarining po'stloq qismi; 6) gipofiz bezidan ajralib chiquvchi intermidin gormoni

- A) 1, 3, 5    B) 2, 3, 6    C) 1, 2, 4    D) 4, 5, 6

80. Odamning rombsimon muskuli haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni ko'rsating.

- 1) joylashuviga ko'ra trapetsiyasimon muskul bilan bir guruhga kiradi; 2) qisqarishi odam ixtiyoriga bog'liq;  
 3) somatik nerv sistemasi tomonidan boshqariladi;  
 4) hujayralarida embrional taraqqiyotidan so'ng sitokinez kuzatilmaydi; 5) hujayralarida kislord tashuvchi gemoglobin oqsili sintezlanadi; 6) joylashuviga ko'ra qorin muskullari guruhiga mansub; 7) vegetativ nerv sistemasi tomonidan boshqariladi.

- A) 3, 4, 5, 6    B) 1, 2, 3, 4    C) 4, 5, 6, 7    D) 2, 3, 4, 7

81. Qaysi gormon limfotsitlar hosil bo'lishi kuchaytirib, organizmnning immunitet xususiyatini oshiradi?

- A) paratgormon    B) tiroksin    C) adrenalin    D) timozin

82. Qaysi javobda odam organizmida organlarni boshqarishdagi faoliyati bir-biriga bir-biriga o'xshash (a) va qarama-qarshi (b) bezlar to'g'ri ko'rsatilgan?

- 1) gipofiz va qalqonsimon bez, buyrak ishida; 2) oshqozon osti bezi va buyrak osti bezi, qonda uglevod miqdorini boshqarishda; 3) buyrak osti bezi va ayrisimon bez, jinsiy bezlar faoliyatida; 4) buyrak osti bezi va gipofiz, yurak ishida; 5) gipofiz va epifiz, pigment almashinuvida;  
 6) oshqozon osti bezi va buyrak osti bezi, jigarda uglevod miqdorini boshqarishda

- A) a - 5, 6; b - 2, 3, 4    B) a - 3, 4; b - 1, 5, 6  
 C) a - 4, 6; b - 1, 2, 3    D) a - 1, 2; b - 3, 5, 6

83. Quyida berilgan misollar turning qaysi mezonlarining nisbiy ekanligini ifodalaydi?

- 1) gorilla va shimpanze kariotipi 48 ga teng; 2) erkak va urg'ochi o'rdak tashqi qiyofasi bilan farq qiladi; 3) xonqiziga taqlid qiluvchi suvaraklar bor; 4) odam va shimpanze qonidagi gemoglobin  $\alpha$ -zanjiridagi aminokislotalar ketma-ketligi bir xil; 5) tovushqonlarning har xil turlari o'zaro chatishib nasl beradi

- A) 1 - genetik; 2, 3 - morfologik; 4 - biokimyoviy; 5 - fiziologik

- B) 1 - genetik; 2, 3 - fiziologik; 4 - biokimyoviy; 5 - ekologik

- C) 1 - morfologik; 2 - genetik; 3 - morfologik; 4 - biokimyoviy; 5 - fiziologik

- D) 1 - genetik; 2, 3 - morfologik; 4 - fiziologik; 5 - biokimyoviy

84. Ba'zi bir pashhalarning, ayrim kapalak turlarining rang jihatdan arilarga, suvaraklarning tugmacha qo'ng'izlarga o'xhashi evolyutsion jarayonning qaysi yo'nalishiga va qaysi holatiga misol bo'ladi?

- 1) biologik regress; 2) biologik progress;

- a) aromorfoz; b) idioadaptatsiya; c) umumiy degeneratsiya

- A) 2 - b    B) 2 - c    C) 1 - b    D) 2 - a

85. Tillaqo'ng'izlar, tugmachaqo'ng'izlar, qovog'ari, tukli ari, ko'pgina kapalaklar, «do'st-dushman» ko'ziga yaqqol tashlanib turishi qanday hodisa va evolyutsion jarayonning qaysi yo'nalishiga misol bo'ladi?

- 1) maskirovka; 2) mimikriya; 3) ogohlantiruvchi rang;

- a) aromorfoz; b) idioadaptatsiya; c) umumiy degeneratsiya

- A) 3 - b    B) 2 - b    C) 1 - a    D) 2 - a

86. Quyida berilgan moslanishlarning qaysilari suv bug'lanishini kamaytiruvchi omil hisoblanadi?

- 1) transpiratsiyaning va ter ajralishining kamayishi; 2) keng yuzali ildiz sistemasining mavjudligi; 3) nafas teshiklarining klapanlar bilan bekilishi; 4) barglarning so'liganligi;  
 5) pillaga o'ralib uyquga ketish; 6) barglarning tikanga aylanishi; 7) barg yuzasining kengayishi

- A) 1, 3, 4, 6    B) 1, 4, 5, 7    C) 2, 3, 5, 6    D) 1, 2, 5, 7

87. DNK molekulasi bo'lagining massasi 862500 ga teng. DNK tarkibidagi bitta nukleotid qoldig'ining o'rtacha massasi 345 ga teng deb qabul qilinsa, shu DNK qo'sh zanjiridagi monosaxarid qoldiqlari sonini aniqlang.

- A) 3200    B) 2500    C) 2300    D) 5200

88. 1260 g glukoza ishtirokida sodir bo'ladigan energetik almashinuvning aerob bosqichida sintezlanadigan ATF da to'plangan energiya miqdori fotosintez jarayonida shuncha glukoza sintezlanishi uchun sarf bo'ladigan ATF dagi energiya miqdoridan qancha (kJ) ga ko'p?

- A) 5400    B) 5040    C) 5004    D) 4050

89. Javdarda poyaning tukli bo'lishi dominant (A), tuksiz bo'lishi retsessiv (a) genlari bilan irlisyaniadi. Javdarning bir populyatsiyasida A geni 80 foiz va a geni 20 foizni tashkil qiladi. Agar geterozigotali organizmlar o'zaro chatishtilishidan 1000 ta o'simlik olingan bo'lsa, shundan nechta geterozigotali tukli ekanligini aniqlang.

- A) 160    B) 640    C) 320    D) 940

90. Quyonlarda quloq suprasining uzunligi 2 juft polimer genlarga bog'liq. Agar quloq suprasining uzunligi 24 sm li  $A_1A_1A_2a_2$  genotipli urg'ochi quyon va quloq suprasining uzunligi 16 sm li  $a_1a_1A_2a_2$  genotipli erkak quyon bilan chatishirilsa, avloddag'i quyonlar quloq suprasining uzunligi necha santimetr bo'lishini aniqlang.

- A) 20, 14 va 12    B) 16, 14 va 10    C) 24, 20 va 16

- D) 20, 16 va 10